

Agrobank tomonidan jismoniy shaxslarga Kredit karta ajratish bo'yicha taklif etilgan tartib.

t/r	Shartlar	Qisqa ta'rifi
1	Qabul qilgan organ, Tartib raqami va sanasi:	Boshqaruv qarori, 14.01.2020 y. №6/1
2	Tushunchalar:	Kredit karta – alohida bank plastik kartochkasi bo'lib, bank tomonidan qo'yilgan limit doirasida mablag' ishlatish huquqini beruvchi kreditlashning shakli.
3	Kredit ajratilishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxslar:	Banklarda milliy valyutada plastik kartasi mavjud hamda doimiy daromad manbaiga (<i>oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya</i>) ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.
4	Kredit miqdori:	Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi)ning plastik karta hisob raqamiga oxirgi 6 oy davomida kelib tushgan mablag'lar (<i>ish haqi va ustamalar, mukofot pullari, shuningdek pensiya, nafaqa, stipendiya</i>) dan kelib chiqib, o'rtacha 1 (bir) oylik daromadining 4 barobaridan yuqori bo'lmagan ($a_1+a_2+a_3+.....+a_6/6=n*4$) miqdorida. Kredit kartasi faqat so'ngi 6 oy davomida doimiy daromadga ega bo'lgan fuqarolarga beriladi.
5	Kredit muddati:	4 yil (48 oy) Kredit ajratilgan sanadan boshlab dastlabki 24 oyi (2 yil) davomida mijoz tomonidan grafikka asosan qaytarilgan mablag'dan qayta foydalanish (qayta limit belgilash) va qolgan 24 oy (2 yil) davomida limitni proporsional tartibda kamaytirib borish usuli bilan revolver shaklda ajratiladi.
6	Foiz stavkasi:	26,99 foiz Mijoz tomonidan ishlatilgan mablag' miqdoriga ishlatilgan kun uchun foiz hisoblanadi.
7	Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar:	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Kredit karta olish va kredit ajratish to'g'risida ariza ➤ qarz oluvchining pasport nusxasi; ➤ qarz oluvchining ish joyidan (hisob-kitob bo'limi) oxirgi 6 oy davri uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotnomasi; ➤ quyidagi ta'minot turlaridan biri; - uchinchi shaxs kafilligi; - kredit qaytmasligi xatarini sug'urta qilish
8	Kredit ajratish tamoyillari:	Kredit karta qaytarishlik, to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlari asosida ajratiladi.
9	Kreditning so'ndirilishi:	Kreditdan foydalanish davomida mijozning plastik kartasiga kelib tushadigan mablag'lar kreditning asosiy qarzi va foizlarini so'ndirishga yo'naltiriladi . Grafikka nisbatan ortiqcha qaytarilgan mablag' limitga qayta qo'shiladi.
10	Limit to'xtatilishi	Mijoz tomonidan so'ndirilishi lozim bo'lgan oylik to'lov (grafik+foiz) o'z vaqtida to'lanmaganda shu kunning o'zida karta bloklanadi va keyingi amaliyot to'xtatiladi.